

YOSHLAR TARBIYASI-KELAJAK UMIDI

Omonlikova Gulnoz Musurmonqul qizi

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

TARIX 106-guruhan talabasi

Anatatsiya: Maqolaning maqsadi, “ Ota-onha andoza, qurib qo’yan darvoza”. Shunday ekan go’zal va chiroyli tarbiya jamiyatda katta ahamiyatga ega, har birimiz xox erkak bo’lsin, xox ayol bo’lsin oilada berilgan go’zal tarbiya bilan ajralib turishimiz darkordir. Har bir go’zal tarbiyaga ega inson boshqalarga doimo ijobjiy ta’sir ko’rsatib kelgan. Yoshlarga to’g’ri tarbiya berish va farzandni loqaydlik bilan tarbiyalashni oldini olish.

Kalit so’zlar: Mustaqillik, Birlashgan millatlar tashkiloti, qadriyat, nafosat, muhabbat, ma’naviyat, madaniyat, faravon, tarbiya, sog’lom, yoshlar, bee’tibor, loqayd.

Mustaqillik butun xalqning uzoq yillar orzu qilib, qo’lga kiritgan buyuk va tarixiy g’alabasidir. Mustaqillik-hamma uchun ulug’ ne’matdir. Mustaqillik bizga insonparvar jamiyatni, davlatni va mahallani, o’z taqdirimizni go’zal tarizda yaratish imkoniyatini berdi. Mustaqillik-kelajagimizni bardavom ettirish uchun qo’ylgan birinchi qadam. O’zbekiston qisqa vaqtida, barcha davlatlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatini qo’lga kiritdi. Yurtimiz tarixi, qadriyatimiz, ma’naviyatimiz, madaniyatimiz tiklandi. Har bir xonadonda mehr-muhabbat, nafosat nurini o’zida munavvar etgan ayol zotiga e’tibor qaratildi. Shukrona aytish kerakki, mustaqillikka erishgach qiyinchiliklar, ayollarga bo’lgan shavqatsizliklar hammasi ortda qoldi. Ayollarga munosabat sharqda ham yaxshi bo’lmagan. Jumladan, Hindistonda o’lgan erkakning ayolini unga qo’shib kuydirishgan. Arabistonda esa ayolga oddiy bir matoh, olib-sotadigan mulk sifatida qaragan. Oila masalasi juda og’ir ahvolda bo’lgan. Ayol kishini meros qilib olish oddiy hol edi. Hatto, shu darajaga yetdiki arabistonda qiz farzand tug’ulganini eshitsa, bu xabarning yomonligidan uyalib odamlar, ko’ziga ko’rinmagan yoki chaqaloqni tiriklayin ko’mib yuborgan. O’sha vaqtida ayol jinsini past sanagan va ayollarni inson sifatida ko’rmagan. Alhamdulillah, yurtimizda ozodlik tonglari otib, istiqlol va hurriyat shamollari esdi. Xalqimiz o’zligini angladi, qadriyatlarimiz birin-ketin tiklana boshladi. Bundan tashqari dinimiz ham buyuk dinlardan biri Islom dini vujudga kelganidan keyin birinchi ayol zotini ulug’lash borasida kurash boshladi, ayollarga e’tibor va extiromni kuchaytirdi. Ayol kishini yerga uradigan inson sifatida ko’rmaydigan qonunlarni parchalab tashladi. O’sha vaqtida ayollarga yetkazilgan zabr zulum ko’p bo’lganligi sababli Islom dinida esa aksincha, bo’lib chiqdi. Dinimizning buyukligini Quronni Karimning bir surasi NISO (Ayollar) deb atalganidan ham

bilishimiz mumkin. Insoniyat tarixida misli ko'rilmagan betakror, tengi yo'q e'tibor bu ayollarga qaratilgan e'tibordir.

Oila- tarbiya maskani. Jamiyat esa oiladan tarkib topgan, oilaning asosiy masuliyati avvalo ayollarimiz zimmasidadir. Jamiyat parokanda bo'lmasligi uchun ma'naviy bilimni yosh qizlarga o'rgatishimiz zarurdir. G'arb davlatlarida "ommaviy madaniyat" yosh qizlar tarbiyasiga qarshi qaratilgan. Masalan, hozirgi kunda telekanallarda uzatilayotgan kino filimlar nafaqat yoshlarning, balki bog'cha bolalarining ham ongiga ta'sir qilmoqda. Biz bu kino filmlardan nima olamiz? Albatta, ota-onaga xurmatsizlik, yaqinlarga mehrsizlik, o'zlikni yo'qotish kabi o'zbekchiligidan yod bo'lgan illatlarni.

Xalqimizning dinu-dyonati, mehr-oqibati, hayo va iffatiga, dangasalik va tamagirlilik, yolg'onchilik va nafsga berilish kabi yomon odatlar rahna solmoqda. Bugungi kunda dolzarb muammoga aylanib qolgan farzand tarbiyasi, qizlar tarbiyasiga oid masalalar hozirda hech kimni befarq qoldirgani yo'q. Har bir ayol farzandiga to'g'ri tarbiya bermog'i uchun albatta, diniy va dunyoviy bilimga ega bo'lmosh kerak.

Bugungi kunda yurtimizda oila mustahkamligi, ona va bola salomatligi, kelajakka mos o'g'il-qizlarni taylorlash masalasini davlat siyosati darajasiga ko'targan ekan, bu hayrli ishga baholi qudrat o'z hissamizni qo'shishimiz joizdir. Kelajak biz yoshlarning qo'lida ekan, o'z kelajagimizga befarq bo'lmasligimiz kerak. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Xalqimizning ma'naviy qudrati va boqiy an'analarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsizlar¹". Shunday ekan avvalo, yoshlarning tarbiyasiga e'tiborsizlik qilmasligimiz kerak. Yoshlarni hech qachon vaqtini bekorchilik bilan o'tkazishiga, loqayd va bee'tibor bo'lishiga imkon bermasligimiz lozim. Muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganidek, "Biz kimdan qo'rqishimiz kerak, jamiyatga bee'tibor va loqayd insondan²". Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyoti, yurtning jadal rivojlanishi, yutuqlarga erishishi, xalqning faravon bo'lishi o'sha davlatning bilim va tarbiyagasiga bog'liq. Mamlakatimiz bu masalada yoshlarga juda ko'p shart-sharoitlar yaratib bermoqda. Prezidentimiz "Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko'p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilangandi. O'zbekiston rahbari bunga asos qilib, bugun dunyo miyosida yoshlarning soni ikki milliarddan ortib ketgani, xalqaro terrorizm va ekstremizm shiddat bilan o'sib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini muhim omillar sifatida asoslab berdi³". Shunday ekan, yoshlarimiz tarbiyasi mustahkam bo'lishi

¹ Shavkat Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezbilik va bunyodkorlik milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent. 2021.

² Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat 2008.

³ Shavkat Mirziyoyev. Birlashgan millatlar tashkiloti. Toshkent. 2021.

kerak, jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikr yuritaoladigan, vatanga muhabbatli, o'zini himoya qila oladigan, uzoqni ko'ra biladigan, hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni nafaqat biz balki butun respublika, butun xalq qo'llab quvvatlaymiz.

Mustaqil O'zbekistonimizning bundanda yuksalishi biz yoshlarga, faqat va faqat bizga bog'liq. Shunday ekan harakat qilmog'imiz lozim. Maqsadimiz, yoshlarga xalqimizning buguni va ertasi uchun madaniyat va ma'naviyatimizni anglatib, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalab, iste'dodli va bunyodkorlikka chaqirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev: Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent: 2021.
2. Islom Karimov: Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat 2008.
3. Shavkat Mirziyoyev: Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Toshkent. 2021.